

## **EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARINI VALYUTA AMALIYOTI XUSUSIYATLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH**

*Matekeeva Nazigul Baxitovna.*

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya  
akademiyasi magistratura tinglovchisi*

*Tel: +99899 955 79 32 E-mail: nazimatekeeva91@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada eksport va import operatsiyalari kontekstidagi valyuta amaliyotining asosiy jihatlari muhokama qilingan. Muallif valyuta tartibga solish mexanizmi, ularning xalqaro savdoga ta'siri va valyuta kursi o'zgarishlari bilan bog'liq risklarni tahlil qiladi. Valyuta operatsiyalarining turli davlatlardagi xususiyatlariga va zamonaviy valyuta nazorati va moliya texnologiyalari tendensiyalariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** valyuta, eksport, import, tashqi iqtisodiy faoliyat, byudjet, tadbirkorlik faoliyati, birja savdolari.

Mamlakatimizning dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalari yildan-yilga o'sib kelmoqda ekan, davlat organlari tomonidan tashqi savdo, davlat byudjetiga tushayotgan soliqlar, bojxona to'lovlari va valyuta nazorati yo'nalishlarida keng islohotlar o'tkazish zamon talabi hisoblanadi. O'z vaqtida tezkor qaror qabul qilishlari uchun ularni tezkor, haqqoniy ma'lumotlar bilan ta'minlash va ularni tizimli tahlil qilish hozirgi paytda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu borada belgilangan vazifalarni bajarish uchun bojxona statistikasi ma'lumotlarini yig'ish, jamlash, qayta ishlash va tahlil qilish usullari, uni yuritish uslubiyati, bojxona yuk deklaratsiyalari elektron bazasi ma'lumotlarini shakllantirish va tahlil qilish dasturlaridan foydalanish, bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirishdagi xatoliklar ustida ishlash, mamlakatlararo tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlarini tahliliy solishtirish, bojxona statistikasi ma'lumotlarini shakllantirishda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida ishlash, bojxona ma'lumotlarini tizimli tahlil qilish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim bo'ladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qilmoqda. Xorijda ham, ichki bozorda ham bozor sharoitlari o'zgarib bormoqda, bu esa o'z navbatida, tashqi savdo operatsiyalari to'g'risida to'liq ma'lumot olish uchun Respublikaning tashqi savdo faoliyatini doimiy ravishda o'rganishni talab qiladi.

Shu bilan birga, vazirliklar va idoralar o'rtasida eksport-import operatsiyalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni mahsulot guruhlari yoki turlari bo'yicha alohidaalohida tayyorlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Davlat statistika qo'mitasi

va Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan foydalanadigan klassifikatorlar va standartlarni uyg'unlashtirishda bo'shliqlar saqlanib qolmoqda.

Shu sababli davlat statistikasi ma'lumotlarini tahliliy jihatidan haqqoniyliги va to'g'ri yuritilishi hamda davlat tuzilmalarini statistik ma'lumotlarini tayyorlashda ijro intizomiga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bir qator huquqiy asoslar yaratilgan.

Ushbu vazifani bajarishda bojxona organlarning hissasi beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasining eksporti va importi haqidagi tahliliy ma'lumotlar bilan muntazam ravishda ta'minlab borish bojxona organlarining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biridir.

Tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlarini tahlil qilish jarayonlarini takomillashtirish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki bu ma'lumotlar iqtisodiyotning turli sohalarida qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir qiladi. Ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi, tahlil usullarining samaradorligi iqtisodiy siyosatning to'g'ri yo'naltirilishi, savdo balansining boshqarilishi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, tashqi savdo jarayonlarining global dinamikasi va milliy iqtisodiyotning ochiqligi sharoitida bojxona statistikasi ma'lumotlarini yanada chuqurroq va keng qamrovli tahlil qilish zarurati tug'ilmoqda.

Tashqi savdo bojxona statistikasini yuritishdan asosiy maqsad bu davlat hokimiyati yuqori organlarini va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan boshqa davlat organlarini O'zbekiston Respublikasining Tashqi savdo holati, bojxona siyosati va tashqi savdoni uyg'unlashtirish borasida qarorlarni qabul qilish paytida ishonchli axborot bilan ta'minlash, davlat byudjetiga undirilayotgan bojxona bojlari, yig'implari va boshqa soliqlar, valyuta nazoratini amalga oshirish,

O'zbekiston Respublikasining ichki bozor talablarini va Tashqi savdosining holati va uni rivojlantirishning, shuningdek uning savdo to'lov balansi va iqtisodiyotning bir butunlikdagi tahlili to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash hisoblanadi.

Tashqi savdo bojxona statistikasi uslubiyati - statistik kuzatuv obyektlarini va ularning bojxona statistikasidagi hisobini, shu qatorda quvur transporti va elektr uzatuv liniyalari orqali yuborilayotgan tovarlar hisobini yuritish tartibini belgilab beradi.

MDHga a'zo davlatlar o'rtasida tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlarini bir xil prinsiplar asosida shakllantirish va samarali hisobini yuritish, shuningdek bunday ma'lumotlarni davlatlararo solishtirish imkonini yaratish maqsadida MDHga a'zo davlatlar hukumat rahbarlari kengashining 2013-yil 20-noyabridagi qarori bilan "Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlar tashqi savdo bojxona statistikasining yagona uslubiyati" tasdiqlangan.

Mazkur uslubiyat asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2016-yil 26-iyuldagi 197-son buyrug‘i bilan “O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosi bojxona statistikasi uslubiyati” amaliyotga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo bojxona statistikasi uslubiyati O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 375-376-moddalari hamda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi Hukumat rahbarlari kengashining 2013-yil 20-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar tashqi savdo bojxona statistikasi yagona uslubiyati”ga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo bojxona statistikasini shakllantirish tartibini belgilaydi.

Iqtisodiyotni barcha ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liq, ko‘p hollarda ularning biri ikkinchisiga tobe. Masalan, milliy daromadlar hajmi yalpi ichki mahsulot hajmiga bevosita bog‘liq. Mehnat unumdorligi va tannarxni olsak, birinchi ko‘rsatkich o‘zgarishi bilan, aniqrog‘i, mehnat unumdorligining ortishi tannarxni pasayishiga olib keladi tovar oborotning hajmi tovarlar bahosi va miqdorini o‘zgarishiga bevosita bog‘liq. Bu tizimga ta‘sir qiluvchi omillarning bog‘liqliklarini aniqlash va o‘lchash tizimli tahlilning muhim vazifalaridan biridir.

Kauzallik tahlili mantiqiy tahlilning turi bo‘lib, ikki ko‘rsatkich yoki ikkitadan ortiq ko‘rsatkichlarning qaysilari sabab va qaysilari oqibatligini aniqlashda qo‘llaniladi. Ko‘rsatkichlarni korrelyasion-regression tahlil qilishdan avval kauzallik tahlili amalga oshiriladi. Ikkita ko‘rsatkichning kauzallik tahlili quyidagicha amalga oshadi: agar X ko‘rsatkich qiymati o‘zgarishi natijasida Y ko‘rsatkichi qiymati o‘zgarsa, va Y qiymati o‘zgarishi natijasida X qiymati o‘zgarmasa, u holda Y — bog‘liq va X – bog‘liqsiz ko‘rsatkich.

Kauzallik tahlili quyidagi uchta savolga javob izlaydi:

- Ko‘rsatkichlar orasida sabab-oqibatli mantiqiy bog‘liqlik (ya‘ni kauzallik) bormi?
- Agar kauzallik bo‘lsa, u holda u holda qaysi ko‘rsatkichlar — bog‘liq, qaysilari esa — bog‘liqsiz?
- Mantiqan qaralganda bog‘liqsiz ko‘rsatkichlar bog‘liq ko‘rsatkichlar-ga qanaqa ta‘sir qiladi: manfiy yoki musbat yo‘nalishdami (ya‘ni teskari yoki teskari emas)?

Korrelyatsion tahlil

Korrelyatsiya bu ikki yoki undan ortiq tasodifiy parametrlarning o‘zaro bog‘liqligi bo‘lib, biror ta‘sir qiluvchi omillarning kuchini aniqlash orqali, qaysi omil eng ustuvorligini belgilashda foydalaniladi. Ya‘ni omilning ta‘sir darajasi ko‘tarilganda yoki pasayganda, voqelikning qay yo‘sinda o‘zgarishi tadqiq qilinadi.

Misol uchun bojxona bojining o‘rtacha arifmetik stavkasi qanchalik past va aksincha yuqori bo‘lsa, import hajmiga qay darajada ta‘sir qiladi yoki bojxona imtiyozlari qiymati va import hajmi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqliklarni tadqiq qilishda

korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Bunda bo'jxona bo'jining o'rtacha arifmetik stavkasi to'g'risida statistik ma'lumotlar to'planadi va o'zaro bog'liqliklarni tahlil qilish asosida zarur xulosaga kelinadi.


Y belgining X ga bog'liqligi, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, to'g'ri va teskari bo'lishi mumkin. Agarda X belgining ortib borishi bilan Y ortsa yoki X ning ko'payishi bilan Y ko'paysa, ular o'rtasida to'g'ri bog'lanish, korrelyatsiya esa ijobiy deyiladi. Misol uchun tovarning  $y$  — advalor (advalorem (lotincha) “qiymatdan”) bo'jxona tushumi va  $x$  — tovarning bo'jxona qiymati orasidagi bog'lanish funksional korrelyatsion bog'lanish hisoblanadi. Deylik, belgilangan 5%li advalor bo'jxona stavkasi bilan bo'jxona to'lovlari undirilayotgan bo'lsa,  $y=0,05x$  formula umumiy tushumni bildiradi. Ya'ni import tovarning qiymati sancha yuqori bo'lsa, bo'jxona to'lovlarining summasi xam shuncha yuqori bo'ladi.

Agarda X ning ortishi bilan Y kamaysa yoki X kamayganda Y ortsa, ular o'rtasida teskari bog'lanish, korrelyatsiya esa salbiy deyiladi.

Analitik ifodalarning ko'rinishiga qarab bog'lanishlar ikki turga, ya'ni: to'g'ri va egri chiziqli bog'lanishlarga bo'linadi.

To'g'ri chiziqli bog'lanishda omil belgining o'zgarishi bilan natijaviy belgining o'zgarishi bitta yo'nalishda bo'ladi, ya'ni omil belgi oshib borsa, natijaviy belgi ham oshib boradi va aksincha.

Egri chiziqli bog'lanishda esa, omil belgining o'zgarishi bilan natijaviy belgi ma'lum bir vaqtgacha u bilan parallel o'zgarib boradi, ma'lum bir nuqtaga yetgandan so'ng natijaviy belgining o'zgarish yo'nalishi o'zgarib boshlaydi. Demak, ular o'rtasidagi bog'liqlik doimiy emas.



Korrelyatsion tahlil bo'jxona statistikasida keng tatbiq qilinadi. Uning amaliy ahamiyatini tashqi savdo statistikasi ma'lumotlar ko'rsatkichlarini tahlil qilishda ko'rib chiqamiz. Misol uchun quyidagi ma'lumotlar bazasi berilgan bo'lsin:

Bunda faktor belgi:  $x$  — tashqi savdo aylanmasi qiymati mln.AQSH dollarida


hamda natijaviy belgi:  $u$  – byudjetga undiriladigan bo'xona to'lovlari mln. So'mda

bo'lsin deb olamiz.

Statistikada ikkita miqdor orasidagi korelyatsion bog'lanish mavjudligini aniqlashning bir nechta usullari mavjud:

1) parallel ravishda ma'lumotlarni solishtirish usuli.  $X$  – faktor miqdorlar qiymatlarini o'sib borish tartibida joylashtirish, undan so'ng ularni mos ravishda  $y$  – natijaviy miqdorlar bilan ko'z chamalab solishtirib chiqish asosida holatni o'rganish. Bizning misolda  $x$  ning dastlabki 6 ta qiymatlari shuningdek, uning dastlabki 5 ta qiymatlari o'syapti shu sababli  $x$  va  $y$  o'zgaruvchilar orasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud deyish qiyin (1-jadval).

2) grafik usuli — bu korelyatsion bog'lanishni grafik ko'rinishda tasvirlashdir. Buning uchun koordinatalari  $x$  va  $y$  o'zgaruvchilarning qiymatlaridan iborat bo'lgan  $n$  ta nuqtani  $xy$  koordinatalar tekisligida belgilash (1-chizma. Korrelyatsiya nuqtalari tekisligi) va ularni kesmalar bilan tutashtirib chiqish.



**Chizma.**  
**Korrelyatsiya**  
**nuqtalari tekisligi**

Bizning misolda  $x$  va  $y$  belgilar orasidagi bog'lanish yuqoriga ko'tarilib borayotgan to'g'ri chiziqqa o'xshaydi (chizma) Bu esa tashqi savdo aylanmasi va bo'xona to'lovlari miqdori orasida chiziqli bog'lanish mavjud degan gipotezani ilgari surishga asos bo'ladi.

To'plam birliklari guruhlariga ajratilgan bo'lsa va omil belgi bilan natijaviy belgi o'rtasida to'g'ri chiziqli bog'lanish mavjud bo'lsa bog'lanish zichligi korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali hisoblanadi. Korrelyatsiya koeffitsiyentini quyidagi formulalar bilan hisoblash mumkin.

$$r_{x,y} = \frac{\left[ \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y}) \right] \cdot \frac{1}{n}}{S_x S_y} \quad \text{yoki} \quad r_{x,y} = \frac{\sum (x - \bar{x})(y - \bar{y})}{\sqrt{\sum (x - \bar{x})^2 \sum (y - \bar{y})^2}}$$

Korrelyatsiya koeffitsiyentini birinchi bo'lib Angliyalik olimlar Golton va Pirsonlar taklif qilishgan. Korrelyatsiya koeffitsiyenti  $-1$  dan  $+1$  gacha oraliqda bo'ladi. Agar korrelyatsiya koeffitsiyenti manfiy ishora chiqsa, bog'lanish teskari,

musbat bo'lsa to'g'ri chiziqli bog'lanish mavjudligi tan olinadi. Aynan shu xususiyat bilan bu ko'rsatkich boshqa ko'rsatkichlardan farq qiladi va bu uning boshqalardan ustunligidir. Korrelyatsiya koeffitsiyenti birga yaqinlashib borgan sari bog'lanish kuchi oshib boraveradi va aksincha. Bog'lanish zichligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga sifat jihatdan baho berish uchun statistikada Cheddok shkalalari ishlatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. 08.12.1992-y. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/>
2. О.Ш.Дадабаев, С.С.Соатов, А.М.Сагитов. Божхона статистикаси ва тизимли таҳлил. Дарслик. Тошкент: БИ, 2020 й. - 296 б.
3. Системный анализ и аналитические исследования: руководство для профессиональных аналитиков / А.И. РАКИТОВ, Д.А. БОНДЯЕВ, И.Б. РОМАНОВ, СВ. ЕГЕРЕВ, А.Ю. ЩЕРБАКОВ; [ОТВ. ред. А.И. РАКИТОВ]. - М., 2009. - 448 с.
4. MDHga a'zo davlatlar Bojxona xizmatlari rahbarlari kengashining 2011 yil 9 iyundagi 53-yig'ilishida tasdiqlangan "O'zaro savdo bojxona statistikasi ma'lumotlarini solishtirishda Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlar bojxona xizmatlarining o'zaro hamkorligi tartibi to'g'risidagi bayonnoma".
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5414-sonli Farmoni.